

разов, в эпоху совершенствования мифического мышления отделяясь от начального вида и мифической функции, до степени сказок, устного народного творчества легенды, до поэтического образа. Изображение феи в виде получеловека, полуптицы, выполнение ими различных социально-жизненных задач рассматриваем как явление развития сознания, т.е. явлением демифологизации. Однако, несмотря на то, что феи изображаются в облике человека, они отличаются от обыкновен-

ного человека внешним видом и сверхъестественной силой. Поэтому в легендах феи выполняют те работы, которые не в силу обыкновенному человеку, и помогают победить жизненные трудности, жить счастливой жизнью, противостоять врагам, А рождение от феи в птичьем облике через мифической детализации идеализирует образ героя, и этим самым, содержание легенды передается народу как художественное произведение и становится более воздейственным.

Литература

1. Алламбергенов К. Миф, ертеп, тарийх, дэстан. –Нөкис: 2014.
2. Бердибаев Р. Эпос- ел хазнасы. –Алматы:1995.
3. Имомов К «Пари образининг мифо-эпик талкини». // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, № 3.
4. Коруглы Х.Н. «Взаимосвязь в эпосах Ирана, Азербайджана и Средней Азии». –Москва: «Наука»,1983.
5. Нарзуллаева Д. Момо култи билан боғлиқ мифологик тимсоллар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, № 5.
6. Саримсаков Б. Эпик жанрлар диффузияси. // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. –Тошкент: 1981.
7. Худойкулова Л. «Ўзбек фольклорида момолар култи». // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, № 4.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада эпик киссалардаги пари образининг бадий роли кўриб чиқилади. Пари образининг ижтимоий, маънавий ва тарихий асослари ва мифологик эволюция натижасида бадий такомиллаштириш йўллари очиқ берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается художественная роль образа феи в эпическом изложении. Социально-бытовые и исторические основы образа феи. Раскрываются пути художественного совершенствования в результате мифологической эволюции.

SUMMARY. The article deals with the artistic role of fairy image in the epical interpretation and its social and historical backgrounds. Ways of artistic perfection in the result of mythological evolution are revealed.

MUMTOZ ADABIYOTDA KO'NGIL TIMSOLI TASVIRIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

(Bobur lirikasi misolida)

D.A.Qahharova – o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tayanch so'zlar: ko'ngil, timsol, obraz, dil, qalb, ishq, muhabbat, yor, mashuqa, do'st, tasavvuf, ilohiy ishq.

Ключевые слова: сердце, символ, образ, душа, любовь, любовник, друг, мистика, божественная любовь.

Key words: heart, sybol, image, soul, love, lover, friend, mysticism, divine love.

Badiiy ong, dunyoqarash va tafakkur har doim yangilanishga hamda o'zgarishga moyil. “Chinakam lirika, — deb yozadi Gegel, — boshqa har qanday haqiqiy poeziya kabi inson yuragining chinakam mazmunini ifoda qilib berishi kerak. Biroq hamma narsa va hatto eng xolis, eng predmetli va eng moddiy hodisalar ham lirik mundarija kasb etarkan, shaxsan his qilingan, ko'ngul ko'zgusida yo'g'rilgan, tasavvur qilingan va o'ylangan holda gavdalanmog'i lozim” [1]. Ko'ngil haqida so'z borganda unga shunchaki ko'ngil sifatida qarash nojoizdek tuyuladi. Chunki uning zamirida tasavvufiy, ruhiy, emotsional ibora yoki mavhum bir tushunchani anglatadigan iborani ham anglash mumkin. Ko'ngil timsoli avvalo inson psixologiyasi bilan bog'liq umumiy tushunchani anglatib, uning xarakteri va o'y qarashi, mentalitetini baholab beradi. Bunga uning urf-odatlar, ajdodlari, jamiyatdagi tizim, yashash tarzi va oilaviy muhiti katta ta'sir etadi. Ammo shuni qayd etish kerakki, o'zbek tilida ko'ngil abstrakt tushuncha bo'lsa ham, ko'ngilning o'zi insonning qaysi a'zosi tasavvur hosil qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“Insoniyat mavjud ekan, hayot, davr va zamon o'zgarib, qayta va qayta yangilanaveradi. Bu yangilanish kishilar ongi dunyoqarashi va munosabatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Biroq insonning ichki olamiga xos aslan yuksak his-tuyg'ular hech qachon o'zgarmaydi. Chunki ularning aksariyati ko'ngil olamiga dahldor. Ko'ngil esa insonning erk va hurlik maqomi. Uning o'z mavjudlik tarzi talab va haqiqatlari bor. Buni juda chuqur anglagan Sharq shoirlari o'z asarlarida doimo ko'ngil hayotidan so'z ochib o'quvchini ko'ngil haqiqatlaridan ogoh etishgan. Ko'ngilni ulug' ne'mat insoniylik asosi ma'rifat beshigi sirlar kaliti sifatida talqin qilishgan. Shu sababli ko'ngil she'riyatining eng go'zal eng faol timsoliga aylangan” [2]. Ko'ngil, qalb inson dardini va ozgalarining sirlarini saqlash uchun eng qulay va ishonchli joy hisobladi. Sir faqat ikki kishi o'rtasida saqlanishi kerakligini inobatga oladigan bo'lsak u oshkor emas pinhon tutulmog'kerak. Ammo uni hammaga oshkor qilishdan ko'ra saqlab yurishning yuki va mas'uliyati anchayin og'irroq. Mana shu yukni ko'tarishni shunchaki ko'tarish emas uni asrab avaylashni esa insonning faqat birgina a'zosi

ko'ngilga topshirilishi zamirida ham katta ma'no mavjud bo'lsa ajab emas. Adabiyot esa bu ma'noni ochishga uni teranroq anglatishga xizmat qiluvchi vosita desak xato bo'lmaydi. Mumtoz adabiyotda ayniqsa lirikada ko'ngil ko'zi, qalb oynasi, kabi terminlar ko'p uchraydi. Bu esa adabiyot olamida ko'ngil timsolining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Aynan mana shu terminlardan foydalangan holda yaratilgan ijod namunalari mutoala qilganda ko'ngil timsoli haqida to'liqroq va tugalroq tasavvurni his etish mumkin. Ko'ngil tuyg'usi turli xil his hayajonga o'ta boy bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kayfiyat;
- shodumonlik;
- qo'rquv hissi;
- his hayajon va boshqalar.

“XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan turkiygo'y shoirlar she'riyatida ruhiy tasvir unsurlari paydo bo'lib, inson obrazi brogan sari to'laroq gavdalana boshlagani tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bu ruhiy tasvir, avvalo ko'ngil holatidan bahs etish, ko'ngil haqiqatlariga urg'u berish bilan ifodasini topdi. Masalan Lutfiy, Atoiy, Gadoiy she'riyatida ko'ngil timsolining ko'proq xalq og'zaki ijodi va fors-tojik adabiyoti ta'sirida yuzaga kelgan an'anaviy tashbeh va sifatleri holat va xususiyatlari o'z ifodasini topgandir” [2].

Ko'ngil odamzod o'zini anglashi va o'zgalarini tushinib yetishi uchun eng muhim vositachi sanaladi. Uni insoniylik mohiyati deb atasa ham bo'ladi. “Shuning uchun Ko'ngil iloh xazinasi. Inson ko'ngilni tanib o'zini tanivdi. Nizomivda Ko'ngil ma'rifat makoni, vujud sultoni. Ammo Amir Xusrav bunga aniq so'fivona tus berib, so'fivning xilvatdagi holatlarini tasvirlavdi. Abdurahmon Jomiy she'rivatida esa, ko'ngil ishqning xufvona aks sadosi bo'lib xizmat qiladi Navoiyda bo'lsa, Ko'ngilning olamdan vujud olamiga kelib, Alloh qudratidan havratlanishlari tasvirlanadi. Shu o'rinda dostonlarning nomlanish sababi ham ma'lum bo'ladi. va'ni “Matla'-ul anvor” deganda, Ko'ngil ilohiy nur porlavdigan jov ekanligi “Havrat-ul abror” deganda, safardagi solih ko'ngilning havratini anglashimiz kerak. Sharq mumtoz adabiyotining zabardast vakillari Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy “ko'z”, “ko'z yoshi”,

“qonli ko‘z voshi” kabi so‘z va iboralaridan nazmda ko‘p o‘rinda unumli foydalananganlar. Mavlono Rumiv “Ko‘zni yumgil ko‘zga avlansin ko‘ngil” desa. Hazrat Jomiv “Oon to‘kar vosh o‘rniga shu chashmi girvonim mening.” deb vozadi. Hazrati Alisher Navoiy “Lisonut tavr”da arab vozuvidagi ko‘z so‘zining vozish shakliga ishora qilib ko‘z so‘zidagi birgina nuqtani olib qo‘vilsa ko‘rga avlanadi devdi. Bundan ko‘zning ma‘naviv ochiqligi inson shaxsidagi asosiy jixatligini tushunish mumkin” [3].

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida ko‘ngil timsoli juda ham ko‘p qo‘llanilgan. Navoiyshunos olim Y. Isxoqov xuddi saboga o‘xshab ko‘ngilga murojaat qilish Sharq lirikasida an‘anaga aylanib qolgan bir usul bo‘lib, ko‘ngil “sevgining asosiy sababchisi sifatida talqin” [4] qilinishini qayd etgan. Bobur ijodini diqqat bilan o‘rganar ekanmiz ko‘ngil timsoli turli o‘rinlarda goh oshiq, goh ma‘shuqa, goh g‘arib, goh podshoh tomonidan tarannum etiladi. Ko‘ngil kechinmalari orqali shoir o‘z ruhiy olamining ayni vaziyatdagi holatini kengroq va chuqurroq tushuntirib berishga harakat qilgan. Bu esa mumtoz adabiyot ixlosmandlariga ayniqsa Bobur ijodini katta qiziqish bilan mutoala qilayotgan kitobxonlarga ko‘ngil timsolining turlicha ma‘nolarda aks etishini aniqroq ko‘rsatib beradi. U o‘z she‘rlarida poetik nutqni xalq tiliga yaqinlashtirgan shu sababli ham uning she‘rlaridagi mavzu va mazmunni anglab olish oson. Yuqorida nomlari qayd etilgan o‘z davrining eng mahoratli mumtoz adabiyot vakillari o‘z lirikasida ko‘ngil timsolini yaratishda an‘anadan tashqari o‘ziga xoslikka ham erishgan. Shu bois ham ular tomonidan yaratilgan she‘rlarda ko‘ngil timsoli juda yuqori darajaga ko‘tarilgan. Haqiqatdan ham ko‘ngil shunchalar ulug‘ tuyg‘uki uni oddiy so‘z bilan tasvirlash juda qiyin buni ham faqat yuksak mahorat sohiblarigina go‘zal ash‘orlar bilan tarannum eta oladi. Shoir ijod olami borasida so‘z ketganda albatta undan oldin ijod qilgan va Bobur ularni o‘ziga ustoz deb bilgan ijodkorlarning ta‘sir kuchini e‘tirof etish kerak. Boisi Zahiriddin Muhammad Bobur ijod olamini bir cham-an deb tasavvur qilsak, bu chamandagi gullarning turfa hid taratishida ustoz shoirlarning o‘rni benihoyatda katta. Bularni shoir tomonidan bir necha o‘rinlarda ustozlarini e‘tirof etganligida ko‘rish bilan birga she‘rivatida ularning an‘anasini davom ettirganidan ham anglab yetishimiz qiyin emas. “Bobur lirikasini Alisher Navoiy lirik merosidan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Bobur Sharq va o‘zbek she‘riyati namoyondalari, ayniqsa, Lutfiy va Alisher Navoiy an‘analarini ijodiy o‘zlashtirdi, davom ettirdi” [4]. Shu boisdan ham Bobur lirikasida Navoiy va Lutfiy ijodi ta‘sirida yozilgan she‘rlar talaygina. Boisi Bobur Lutfiy ijod maktabida tahsil olgan. Lutfiyning quvidagi g‘azali Boburning shu tipdagi g‘azallari paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi:

Matla’:

Meni shavdo qiladurg‘on, bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,
Xor-u rasvo qiladurg‘on, bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Maqta’

O‘zga din ko‘rmaki ko‘zung voshini, ev Lutfiy,
Avni darvo qiladurg‘on, bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul. [5]

Boburning quvidagi baytiga nazar salsak aynan Lutfiyni ushbu “Bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul” radifli g‘azalidan ilhomlangan degan fikrga boramiz:

“Ko‘z ko‘rar, lekin solur meni balog‘ bu ko‘ngul,

Bu baloni necha chashmi xunfishondin ko‘reamen” [6].

Ikki ijodkorning she‘rlaridan bir xulosaga kelishimiz mumkinki Lutfiyni ham Boburni ham o‘z ko‘ngli baloga giriftor ham qiladi, holatini xor-u rasvovam qiladi. Ko‘ngil rishtalarni bog‘lavdi, dillarni birlashtiradi eng muhimi ruhiv osovishtalikni ham hadya etadi. Ana shu osovishtalik shoirlar ijodini ham bir-biriga bog‘lab bir-biridan ilhomlanishga sabab bo‘lar ekan. Boburni ko‘ngil borasidagi o‘v-qarashlarini jumbushga kelib satrlarda aks ettirishga sababchi bo‘lgan ijodkorlardan yana bir so‘z mulkining sultoni

Alisher Navoiy deb aniq avta olamiz. Bunday fikrga kelishimizga esa Boburning ko‘ngil, qalb, dil kabi timsollarni she‘rlarida aks etishida Navoiyga xos bo‘lgan an‘ana ko‘rinishlarining mavjudligi sabab bo‘ladi. Xususan Alisher Navoiy o‘z mulohazalarida, Allohning olamni yaratishdan maqsadi – inson, insonni yaratishidan “g‘araz” – maqsad esa KO‘NGILni yaratmoq edi, deydi:

Ermas edi anda g‘araz hech gul,

G‘ayri ko‘ngulkim, g‘araz erdi ko‘ngul. [7]

Shoir ko‘ngil ta‘rifida tashbehlarning eng sarasini, ohorlisini ishlatadi. Ya‘ni jism gulshan bo‘lsa, ko‘ngil undagi g‘unchadir:

Eyki ko‘ngul vasfi bayon aylading,

Sen bu ko‘ngulni ne gumon aylading.

Gulshani jisming aro gul g‘unchasi,

Bitsa gumon etma ko‘ngul g‘unchasi.

Navoiydagi kabi ko‘ngilni g‘unchaga qiyoslash ananasini Bobur xuddi shoirdek davom ettirdi. Buni shoirning quyidagi g‘azalidan ham bilib olsak bo‘ladi.

Matla’

“Ko‘ngluchadek ko‘nglum mening gulzor mayli qilmag‘ay,

G‘am bila butgan ko‘ngul gulgasht ila ochilmag‘ay”. [6] – deydi.

Bu kabi ko‘ngilni g‘unchaga qiyoslashni Bobur o‘z she‘riyatida juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llaydi. U Navoiydan me‘ros bo‘lgan ananadan oqilona foydalanib g‘unchaga qiyoslangan ko‘ngilni yuksak darajaga olib chiqadi.

Yoki bo‘lmasam shoirning yana bir:

“Qo‘y ey soqiy nasixat so‘zlarinkim, dil pisand ermas

Mening devona ko‘nglumga nasixat sudmand ermas...

- matla‘li g‘azali Alisher Navoiyning “Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas” misrasi bilan boshlanadigan g‘azaldan ilhomlanib yozilgan. Baytda oshiq uchun pandu nasihat befoyda, ko‘ngli qabul etmaydi. Shuning uchun u nosih (nasihat qiluvchi)dan yuz o‘girib, soqiyga murojaat qiladi” [8]. Ko‘rib turganimizdek mumtoz adabiyot vakillari bir-birlarining ijod namunalaridan ilhomlanib she‘r yoki asar yozishsa bilingki o‘zidan oldin yashab ijod etgan adabiyot vakilini o‘ziga ustoz yoki hamkor deb biladi. Bu esa o‘z navbatida shoirlarning o‘zidan oldingi an‘anaga rioya qilish orqali o‘zidagi o‘ziga xoslikni namoyon etishiga dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Bobur g‘azallarida Alisher Navoiy tasvir mahoratining ta‘siri yaqqol seziladi. Bobur g‘azallarida har bir baytni tashkil etuvchi misralarning mazmun jihatidan yahlitligi, birinchi misrada bayon etilgan fikrning ikkinchi misrada sharh etilishi va har ikkala misra mazmuni bir-biridan ajralmas bir butunlik kasb etilishi shu jumladandir. Shuningdek she‘riy obrazlar, badiiy tasvir vositalarini ishlatib bilish mahorati Navoiy maktabining ta‘siri ostida shakllangan. Ifoda uslubidagi soddalik, g‘azal tilining xalq tiliga yaqinligi maqsad, fikrning ko‘p o‘rinlarda lo‘nda va ochiq bayon etilishi esa Bobur g‘azallarining original jihatlarini tashkil etadi”. [8] Xususan Ko‘ngil so‘zining tilimizda arabcha va forscha dil, qalb kabi sinonimlari mavjud bo‘lsa-da, bu so‘zlarga nisbatan keng qo‘llanuvchi hamda poetik timsol darajasiga ko‘tarilgani ko‘ngildir. Lug‘atlarda “ko‘ngil – kishining his –tuyg‘u kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil, xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor, har narsaning markazi, o‘rtasi – deb sharhlangan”. Qolaversa, xalq og‘zaki ijodida ham ko‘ngil bilan bog‘liq “ko‘ngil bermog‘”, “ko‘ngil olmoq”, “ko‘ngil ko‘yi” kabi bir qancha iboralarining mavjudligi yoki xalq qo‘shiqlarida ko‘ngilning tarannum etilishi ham mazkur tushunchaga so‘z san‘atining barcha sohalarida keng murojaat qilingani ko‘rsatadi. Mumtoz adabiyotimizda ham ko‘p qo‘llanilgan poetik timsollardan biri.

Qizig‘i shoir she‘rlarining ko‘plarida keluvchi ko‘ngil timsolini hamisha yo notavon yoki telba holatida uchratamiz. Shoir notavon va telba so‘zlari orqali o‘z ko‘ngil holatini yoki bo‘lmasa lirik qahramonning ko‘ngil holatini

tasvirlaydi. Xususan quyidagi baytga to'xtaladigan bo'lsak shoirning notavon ko'ngliga ishq qayg'u olib keladiganligidan gumonda ekanligini ko'rishimiz mumkin:

Notavon ko'nglimga ishq qayg'uni kelturgidek,
Ayshu ishratni ko'nguldan qayg'urur el qilgudek.

Shoirning shu xildagi she'rlari talaygina. Uning lirikasida kamdan-kam hollarda ishqdan sarmast ko'ngilni uchratamiz. Bu ham Bobur lirikasiga xos bo'lgan an'ana va o'ziga xoslikdan dalolat bersa ajab emas. Bobur Mirzo ko'ngil timsolidan foydalanishda mumtoz adabiyot vakillarining ananasini davom ettirgan ammo undagi ko'ngil timsolining tarannum etilishida shoh va shoirga xos bo'lgan o'ziga xoslikni anglashimiz qiyin emas. Chunki Bobur ko'nglida osoyishtalik his etgan, ko'nglini o'ziga maskan tutgan, yorga yetishishda ko'nglini vositachi qilgan, hiyonat ko'rganda esa o'z ko'ngli bilan do'st tutingan eng asosiysi esa yurtini qo'rsab Vatanidan yiroqda azob tortganda ko'nglida ijod qilgan shoir. Boburchalik ko'ngilni kuyilagan, undan ilhom olgan, u bilan sirlashgan shoir yoki yozuvchi bo'lmasa kerak. Ana shu jihatlari bilan ham Bobur shoh ko'ngli bilan kechirgan his-tuyg'ularini shoir ko'ngli bilan yanada jimjimador qilib qog'ozga tushiradi. Bu dard-u hasrat va ruhiy kechinmalar Bobur bilan birga kitobxon qalbidan ham chuqur joy egallaydi. Shu o'rinda so'zning sehdan mahorat bilan foydalana olgan "Bobur Mirzo lirikasida ko'ngil turli holatda va turfa ma'nolarda o'z aksini topganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Muallif nasriy va nazmiy asarlarida qo'llagan ko'ngil timsoliga doir so'zlarni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

1. Emotsional holat; hazin ko'ngul, ko'ngli tilamoq.
2. Ijtimoiy munosabat; ko'ngul bermoq
3. Gumon; ko'nglida ne dog'larkim yo'q, ko'nglida egriligi bo'lmoq.
4. Mulohaza; ko'nglug'a shubha kechmoq.
5. Qaror; ko'ngliga kechurmoq

Muallif kayfiyati bilan bog'liq ko'ngil timsoli she'riy asarning boshidan oxiriga qadar dil, yurak, qalb, vijdon, oxirat kechinmalari bilan kurashadi, hatto uning o'y qarashi, tizimli tahlil orqali – qalb kechinmalari bilan sayqallashadi" [9]. Mumtoz adabiyot vakillarining deyarli barchasi she'rlarida timsollardan keng va mazmunli foydalanishgan. Lutfiy, Jomiy, Navoiy lirikasida kelgan sog'inch, ishq, muhabbat, firoq, g'urbat va eng asosiysi ko'ngil timsollarini Bobur ijodida ham uchratamiz. Timsollardan foydalanish o'ziga xos tarzda mumtoz adabiyot vakillarida an'anadek bir birida takrorlanib kelgan. Ammo har birining ruhiy holati va tasvirlash usuli turlicha bo'lganligi sababli yuqorida takidlangan timsollarni har bir ijodkor she'rlarida yangidan-yangi kashf etish va o'zgacha ko'rinishlarda anglash qiyin emas. Jumladan Bobur she'rlarida ham buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin. Bobur ijodida ham ko'p o'rinlarda Lutfiy va Navoiy

ijodida takrorlangani kabi ko'ngil timsolidan yorga, mashuqaga ishqini, sevgi va muhabbatini bayon etuvchi vosita sifatida foydalanilgan. Buni esa har uchala shoir ham mohirlik bilan ifoda etgan. Shuningdek, Bobur yangi-yangi timsollarga qo'l urish orqali o'z hissiyotlarini namoyon etishga uringan. Bu esa uning she'rlarini mazmunan boyitishga xizmat qilgan. Xususan gul va bulbul timsoli Bobur uchun o'z ichki dunyosi, ko'ngil kechinmalari va iztirobli ruhiy holatlarini ta'sirchan ifodalash vositasi bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shoirning she'rlari hayot saboqlariga ega falsafaga va mukammal fikrlarga boy. Hasbi hol mavzusida yozilgan she'rlarda Boburning hayoti davomida boshdan kechirgan voqealarini, ko'rgan qiyinchiliklarini, hiyonatlarini va ishqdan sarmast bo'lib bazan muhabbatning achchiq azoblaridan iztirob chekkanini anglab olish qiyin emas. Buni quyidagi baytdan ham bilib olishimiz mumkin.

Misol uchun:

"Ko'nglumizga javr behad qildi ul nomehribon,
Jonima yuz ming g'amu mehnatni hosil qilg'udek" [6].

Yuqoridagi baytda ham insonning ishqiy holati, mashuqaning yoriga adolatsiz javobi izhorining manzarasi-ni noyob tasviri uning yangicha, o'ziga xos badiiy ifodasini kuzatamiz. Bir qarashda yuqoridagi bayt oddiy lirik qahramonning ishqiy kechinmasining izhoridek tuyuladi. Lekin diqqat bilan mutoala qilinish tahlil qilinganda misralarning tashqi ma'no kasb etishi bilan birga mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladigan badiiy san'atlar orqali ifodalangan chuqur ichki mazmun ham borligini anglab olish qiyin emas. Ana shu ichki mazmunning borligi shoirning ruhiy holatini, ko'ngil kechinmalari va muhabbatga to'la izhorlarni kitobxonga to'laqonli tarzda ifodalab beradi. Bu esa Bobur she'rlarining yanada ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, ichki hissiyotning she'rdagi ifodalanishi mutoala qilayotgan har bir o'quvchining aynan o'sha holatga tushishiga, o'sha holatni his qilishga undaydi.

Bobur Mirzoning boshqalarga o'xshamagan boshqa ijodkorlarni takrorlamaydigan jihatlaridan yana biri u o'z his-tuyg'ulari va ruhiy kechinmalarini yashirmasdan boricha o'quvchiga yetkazib bera olishidadir. Mumtoz adabiyotda umuman olgan adabiyotda kamdan-kam shoirgina bu maqomga erisha olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bobur esa o'sha kam sonli deya etirof etiluvchi shoir qatoridan o'rin olgan. "Ma'lumki, adabiyot jumladan, she'riyat uchun ham birdan-bir unsur so'zdir. She'rda turli kechinma, hissiyot, hayol, tuyg'u, tushunchalar faqat so'z orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham ulug' shoirlar so'z o'lik ko'ngillarga va jonsiz tuyg'ularga hayot bag'ishlovchi jon deya ta'riflashgan" [8]. Boburning lirikasida ham Navoiy lirikasi kabi so'z sehri, so'z qudrati yetakchilik qiladi. Ana shu jihatlari bilan ham Bobur she'riyati maqtovg'a sazovor desak xato bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Гегел. Эстетика. Т.3. –М.: 1971. 504-б.
2. Бозорова Н, Навоийнинг ижод олами мақолалар тўплами. //Кўнгил тимсоли ва тасвир санъати. -Т.: "Фан". 144-б.
3. Bekmirzayeva X. Bobur she'riyatida poetic obraz. –Т.: "Muharrir", 2013. 22-б.
4. Исмоков Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. -Т.: 1965. 76-б.
5. Лутфий. Сенсан севарим..., - Т.: "Адабиёт ва санъат" 1987. 146-б.
6. Бобур З.М. Бобур шеърятидан. –Т.: 1982. 42-б.
7. Алишер Навоий. Хайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. –Т.: "Фан", 1991. 7-жилд.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. -Т.: 2017. 282-283-б
9. Тешабоева З. Бобурноманинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик таъкиди. Филол.фан.номз...дисс. –Т.: 2021.

РЕЗЮМЕ. Мақолада mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan ko'ngil timsoliga murojaat qilingan. Ko'ngil timsolining mumtoz adabiyoti vakillari ijodida turlicha o'rinlarda talqin qilingani misollar yordamida tahlil qilingan. Shuningdek ko'ngil timsolining Bobur lirikasida qo'llanilishi qanday ma'nolarda aks etib kelganligi shoir g'azal va ruboiylaridan misollar keltirish orqali tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о символе сердца который широко используется в классической литературе. На примерах анализируется трактовка символа души в разных местах творчества представителей классической литературы. Кроме того, анализируется использование образа сердца в лирике Бабура на примерах из газелей и рубаев поэта.

SUMMARY. The article refers to the sybol of the heart, which is widely used in classical literature. The interpretation of the sybol of the soul in different places in the work of representatives of classic literature is analyzed with the help of examples. Also, the meaning of the use of the image of the heart in Babur's lyrics is analyzed by giving examples from the poet's ghazals and rubai.